
TUMAN HOKIMI HUDUDLARDA

Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikovning aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'tkazish, ularni qiynab kelayotgan muammolarni aniqlash hamda hal etish maqsadida, Nurafshon mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi. Qabulda 11 nafar fuqarolar ishtirok etishdi. Fuqarolar tomonidan bildirilgan muammolarni ijobiy hal etish yuzasidan muddatlar belgilangan holda tegishli tashkilot va korxonalar rahbarlariga topshiriqlar berildi.



Shuningdek, tuman halq ta'limi bo'limiga qarashli 12-umumta'lim maktabida "Hokim va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi. Uchrashuvda tumandagi tashkilot va korxonalar rahbarlari hamda hududdagi yoshlar qatnashdi. O'tkazilgan uchrashuvda yoshlar tomonidan berilgan savollarga tegishli tartibda mas'ullar tomonidan javoblar berildi.



2020-12-04 19:49:21